

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. Fil.14.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

ATAKULOVA E‘TIKODXON SALAXITDINOVNA

**MILLIY MATBUOT ISTIQBOLINI BELGILASHDA
ZAMONAVIY POLEMIKANING O‘RNI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Atakulova E’tikodxon Salaxitdinovna

Milliy matbuot istiqbolini belgilashda zamonaviy polemikaning o‘rni..... 3

Атакулова Этьтикодхон Салахитдиновна

Роль современной полемики в определении перспективы национальной
прессы..... 23

Atakulova E’tikodkhan Salakhitdinovna

The role of modern polemic in determining the perspective of the national
press..... 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019. Fil.14.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

ATAKULOVA E‘TIKODXON SALAXITDINOVNA

**MILLIY MATBUOT ISTIQBOLINI BELGILASHDA
ZAMONAVIY POLEMIKANING O‘RNI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3938 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tashgiv.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Toshpo'latova Nazira Qurbonovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatova Yoqutxon Muhammadjonovna
filologiya fanlari doktori

Doniyorov Salim Musurmonovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30/03.12.2019.Fil.14.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (Manzil: 100147, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil "___" _____ dagi ___ -raqamli reyestr bayonnomasi).

F. A. Mo'minov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, f.f.d., professor

N. F. Muratova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d.

A. I. Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.f.f.d.(PhD), dotsent

KIRISH

(Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Globallashuv jarayonida onlayn nashrlar, ijtimoiy tarmoqlarda turli forumlardagi tortishuvlar, video, maqola, xabar sharhlaridagi munozaralar, televizion tok-shoular, bosma va elektron gazetalar kontenti turli bahs-munozarali vaziyatlar bilan boyimoqda. Jahonda axborot texnologiyalari, plyuralizm va soʻz erkinligi jadal rivojlanishi axborot uzatishda yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Ommaviy axborot vositalarida ijtimoiy hayotning u yoki bu masalasi yuzasidan koʻtarilayotgan bahslar jamiyatda plyuralizmni rivojlantirish, oʻzaro muloqot jarayonida mavjud muammolarga oydinlik kiritish va ularga yechim topishga xizmat qilmoqda. Axborotlashgan jamiyatda maqsadli auditoriyaga taʼsir qilish, maʼlum bir gʻoyani targʻib etish, axborot oqimini samarali boshqarish va yangi bilim olish usuli sifatida polemikaga murojaat etishni taqozo qilmoqda. Fikrlar xilma-xilligini rivojlantirish, tanqidiy tafakkurni oʻstirish, auditoriya eʼtiborini jalb etish borasida polemik kontentga urgʻu berish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Dunyo miqyosida polemika sanʼati, polemik matn xususiyatlari, taʼsiri, zamonaviy prinsiplarini oʻrganish borasida koʻplab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, mass-mediada transformatsiya, konvergensiya jarayonlari kuzatilayotgan bir davrda jamoatchilik diqqatini jalb qilish borasida samarali usul hisoblangan polemika va polemik maqolalar yuzasidan tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega.

Yangi Oʻzbekiston sharoitida soʻz erkinligiga katta eʼtibor qaratilishi jamiyatda plyuralizmni rivojlantirishga, OAVda u yoki bu masala yuzasidan bahstalab kontentlarning koʻpayishiga sabab boʻlmoqda. “Axborot maydonidagi turli bahs va tortishuvlar, avvalo haqqoniylik va xolislik tamoyillariga asoslanishi, qonun doirasida boʻlishi, shaxsiy xusumatga, soxta obroʻ orttirish vositasiga aylanib ketmasligi, inson shaxsi va shaʼnini tahqirlashdan yiroq boʻlishi, bunday salbiy holatlarga bizning media maydonimizda oʻrin boʻlmasligi kerak”¹. Shu oʻrinda oʻzbek media olamida bahsli masalalarning ahamiyati, dolzarbligini ilmiy va nazariy jihatdan tadbiq etish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Mass mediada fikrlar xilma-xilligini rivojlantirish, tanqidiy tafakkurni oʻstirish, auditoriya eʼtiborini jalb etish borasida polemik kontentga urgʻu berish tadqiqot ishining dolzarbligini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”², “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish toʻgʻrisida”gi³ Qonunlari hamda 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot

¹ Mirziyoyev Sh. M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. – URL: <https://qalampir.uz/uz/news/matbuot-va-ommaviy-axborot-vositalari-khodimlariga-prezident-tabrigi5573> (murojaat sanasi: 02.11.2023).

² Oʻzbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi qonuni. – URL: <https://lex.uz/docs/-1106870> (murojaat sanasi: 03.11.2023).

³ Oʻzbekiston Respublikasining “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonuni. – URL: <https://lex.uz/docs/> (murojaat sanasi: 03.11.2023).

strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni⁴ va 2022-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁵ PQ-294-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek jurnalistikasida F. Mo‘minov, B. Do‘stqorayev, X. Do‘stmuhamedov, M. Xudoyqulov, H. Saidov, Y. Mamatova, N. Toshpo‘latovalarning⁶ tadqiqotlarida bahsning jurnalistikadagi o‘rni, janr xususiyatlari, maqola turi sifatidagi ko‘rinishlari tadqiq etilgan bo‘lsa, M. Xudoyqulova, N. Qodirovalar polemikaning adabiy janr sifatidagi o‘ziga xosligini, tadqiqotchi S.Turabova esa ilmiy bahs va uning falsafadagi o‘rni tadqiq etilgan.

Polemika tushunchasi, polemik matn va xususiyatlari bilan bog‘liq ishlarning nazariy asoslari aks etgan tadqiqotlar MDH davlatlarida A.Tertichniy, Y.Zasurskiy, A. Shesterina, P. Smirnov, A. Ivin, E. Linnes, T. Sinenko, L. Sedov, S. Povarnin, V. Rodos, L. Pavlova, N. Proshunin, Y. Timoshenko, S. Mineyevalar ning⁷ dissertatsiya va ilmiy maqolalarida o‘rganilgan.

⁴ “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni – URL: <https://lex.uz/docs/3107036> (murojaat sanasi: 03.11.2023).

⁵ “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni – URL: <https://lex.uz/docs/3107036> (murojaat sanasi: 03.11.2023).

⁶ Муминов Ф.А. Полемическое искусство К.Маркса. Автореф. ... докт. филос. наук. М., 1992. С. 3. Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2008. B. 324; Do‘stmuhamedov X. Jurnalstning kasb odobi muammolari. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2007. B.15. Xudoyqulov M. Jurnalstika va publitsistika. – Toshkent: Tafakkur, 2011. B. 34; Mamatova Я.М. Современная периодическая печать Узбекистана: система, тематика, тенденции и проблемы функционирования. – Ташкент: Национальное общество философов Узбекистана, 2006. С. 10; Saidov H. Matbuot – milliy manfaatlar himoyachisi – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. B.36; Nazira Qurbon. Tahliliy jurnalistika: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Bayoz, 2019. B.110; Turabova S. Ilmiy bahs (debat, diskussiya, polemika, disput) ning mantiqiy-epistemik tahlili. -Toshkent: Surxon nashr, 2020. B. 15; Xudoyqulova M.A. O‘zbek tanqidchiligida bahs: tabiati va taraqqiyoti. f.f.f doktori (PhD) avtoref. - Buxoro, 2022. – URL: <https://buxdu.uz/39-nashrlar/155/155-ilmiy-axborot-jurnali>. (murojaat sanasi: 05.08.2023).

⁷ Тертычный А.А. Жанры периодической печати: учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 2000. С. 56; Засурский Я.Н. Журналистика переходного периода: современные концепции и практика / Сб. «Актуальные проблемы журналистики». Материалы научно-практической конференции «Журналистика в 1996». С. 22; Шестерина А.М. Полемический текст в современной прессе. Автореф. ... дис. докт. филол. наук. – Воронеж, 2004. – URL:<https://www.dissercat.com/content/polemicheskii-tekst-v-sovremennoipresse?lielyfda5i151302893>; Смирнов П.С. Polemika o perstoslozhenii v XVIII i XIX stolyetiyax. – СПб.: СПбПДА, 2009. (www.spbda.ru); Ивин А.А. Искусство правильно мыслить. – М.: Просвещение, 1990. С. 125; Линнас Э.А. Критический анализ дискурса политической полемики: на материале электронных СМИ. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: МГУ, 2006. С. 15; Сinenko T.B. Polemika v Rynete: funktsionalnye, strukturalnye, tematicheskie i janrovye osobennosti. Автореф. дис. ... докт. филос. наук. – Воронеж, 2008. С. 26; Седова Л.Н. Основы полемического мастерства: учебное пособие. – Харьков, ХНЕУ им. Кучнеса, 2014. С. 178; Поварнин С. И. Спор. О теории и практике спора. – М.: Технологическая школа бизнеса, 2008. С. 45; Родос В.Б. Теория и практика полемика. Томск: Томский государственный университет им. В.В.Куйбышева, 1989.

Jahon mediasida polemikaning mediadagi o‘rni xususida g‘arblik mutaxassislar A. Gordon, J. Gallop, D. Valton, E. Poylet, R. Earl, J. Herring, S. Osmond⁸ singari tadqiqotchilar izlanish olib borgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Mass-media nazariyalari, tarixi va istiqbolining dolzarb muammolari” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi polemika tushunchasi, uning ta’rifi, tasnifi, bahsning boshqa turlaridan farqi, zamonaviy mediadagi o‘rnini matbuotda chop etilgan bahs-munozarali maqolalarni tahlil qilish orqali ko‘rsatib berishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

polemika tushunchasi, tasnifi, yondashuvi, bahsning boshqa turlaridan farqini tadqiq etish;

polemika tadrijini davrlar miqyosida o‘rganish va tizimga solish;

jadid matbuotida polemik maqolalarning o‘rnini ko‘rsatish;

so‘z va matbuot erkinligini ta’minlashda polemika yetakchi indikator ekanligini aniqlash;

milliy matbuot xususida kechgan bahslarni polemik janrlar va mavzular ko‘lami bo‘yicha tasniflash;

bosma nashrlarga bo‘lgan ehtiyojning pasayish omillari va ular atrofidagi bahs-munozaralarni tahlil qilish;

matbuotda chop etilgan polemik maqolalarda bosma nashrlarning konvergent media muhitiga moslashuvi muammolarini aniqlash;

polemik maqolalarda sarlavha va tagsarlavhaning o‘rnini aniqlash va tasniflash;

bahs-munozarali maqolalarda til va uslub masalasi, muallif pozitsiyasini aniqlash;

polemik maqolalarda etika bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida mamlakatimizdagi “Yangi O‘zbekiston”, “Hurriyat”, “Ishonch”, “Jamiyat”, “Ma’rifat”, “XXI asr” gazetalari, “Kun.uz”, “Daryo.uz”, “Oyina.uz” internet-nashrlarida chop etilgan polemik maqolalar belgilangan.

С. 16; Павлова Л.Г. Спор, дискуссия, полемика. – М.: Просвещение, 1991. С. 5; Прошунин Н.Ф. Что такое полемика? – М.: Политиздат, 1985. С. 19; Минеева С.А. Полемика, диспут, дискуссия. – М.: Знание, 1990. С. 17; Тимошенко Е. Д. Анализ приёмов и методов полемики в материалах Швейцарской газеты “Тан”: 2007–2010 гг. Автореф. дис. ... канд. фил. наук, 2011. – С.10.

⁸ Gordon A. Controversies in media ethics. - New York: Routledge, 2011. P.5; Gallop J. Polemic critical or uncritical. -New York: Routledge, 2004. P.15; Walton D. The place of emotion in argument. - Pennsylvania: 1992. P.13; Roulet E., Fillietaz L., Grobet A., Bürger M. Un modèle et un instrument d’analyse de l’organisation du discours. Berne: 2001. P. 8; Earl R. Hutchison, Sr. Writing for mass Communication/Hutchison R. - London: Earl. Longman Group Ltd., 1986. P. 9; Jonathan Herring. Art controversy. Prentice Hall life is an imprint of pearson, 2011. P. 19. Candace Osmond. Polemic vs Polemical – What’s the Difference? – URL: <https://grammarist.com/author/casmond/> (murojaat sanasi: 30.03.2024).

Tadqiqot predmetini polemikaning o'ziga xos xususiyatlari, tahliliy janrlardagi o'rni va imkoniyatlari, polemik usullar va ko'rinishlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy (tahliliy sintetik, tarixiy-qiyyosiy, tarkibiy-tipologik), tahlil (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, konkretlashtirish); sotsiologik (kuzatuv, kontent tahlil), prognostik (fikriy eksperiment, mustaqil baholarni umumlashtirish va boshqa) kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ommaviy kommunikatsiyalar rivojida polemikaning o'rni, eristika, sofistika, dialektika kabi tarixiy ko'rinishlari mavjudligi jadid matbuotida namoyon bo'lishi tadrijiy tizimlashtirilgan;

polemika talablaridan kelib chiqib bahsda qatnashayotgan tomonlarning "proponent" yoki "opponent" rollarida namoyon bo'lishi milliy nashrlarda chop etilgan bahs-munozarali maqolalar orqali dalillangan;

yangi O'zbekiston sharoitida so'z va matbuot erkinligi mavjudligini namoyon etishda polemik maqolalardagi erkin fikrni bildira olish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, plyuralizm kabi komponentlar muhimligi aniqlangan;

yangi texnologiyalar sharoitida matbuotning yashab qolishi masalasi atrofida kechgan bahs-munozaralar mavzularga qarab tasniflandi, auditoriyani xabardor qilish, tanqidiy fikrlashga undash orqali yangi bilimga ega bo'lishda makon va zamon kategoriyasi ahamiyatsizligi isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti bakalavr va magistratura bosqichi talabalari uchun "Jurnalistikada polemika", "Jurnalistikada polemika va tanqidiy fikrlash" fani bo'yicha fan va ishchi o'quv dasturlari ishlab chiqilgan, ma'ruza matnlari, taqdimot va videomateriallar tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, nazariy ma'lumotlarning ilmiy adabiyotlardan olinganligi, mavzu ko'lami doirasida tahlilga tortilgan bosma va elektron nashrlar, daxldor TV ko'rsatuvlari, jahon tajribasini o'rganishda internet manbalaridan foydalanilgani, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining sifat jihatidan ta'minlangani, qiyyosiy metodlardan foydalanilgani, tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'rganilgan va ishlab chiqilgan nazariy tushunchalar, amalga oshirilgan tahlillar jurnalistika fanini o'qitish amaliyotida, polemik maqolalarni tahlil qilish va ularning boshqa turdagi jurnalistik janrlar bilan o'zaro mushtarak va o'ziga xos jihatlarini aniqlashda qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot materiallari asosida polemika san'ati, bahslashish ilmi, polemik maqolaning janrlar tizimidagi o'rni va uning tahliliy xususiyati, polemika san'ati, bahslashish ilmi bo'yicha kurslarni ishlab chiqishda ko'mak beradi. Buning uchun esa mazkur mavzu nazariy tadqiq etilishi, jurnalistika amaliyoti uchun tavsiyalar ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Milliy matbuot istiqbolini belgilashda polemikaning o‘rni va milliy mass-mediaga integratsiyalashuvi borasidagi xulosa va amaliy takliflar asosida:

gazetada ko‘tarilgan bahslarni takomillashtirish, jozibasini oshirish maqsadida polemik maqolaning tili va uslubi borasida ishlab chiqilgan tavsiyalardan shuningdek, polemik maqolaga sarlavha qo‘yishning zamonaviy talablari va uni keltirib chiqarayotgan ilmiy-nazariy xulosalardan “Ishonch” va “Ishonch-Doveriye” gazetalar tahririyati faoliyatida foydalanilgan. (O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi 2024-yil 1-aprel ISH-06/455 sonli ma‘lumotnomasi hamda “Ishonch” gazetasining 2024-yil 1-apreldagi 27-sonli dalolatnomasi). Natijada, gazetada chop etilgan polemik maqolalar podkast, onlayn chat, anons ko‘rinishida gazeta saytiga berib borish borasidagi takliflar qo‘llab-quvvatlandi va gazeta sayti faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish jarayoniga tatbiq etilgan;

axborotlashgan jamiyatda auditoriya e‘tiborini qaratishning samarali usullaridan biri polemik maqolalarni chop etish orqali jamiyatda plyuralizm va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, polemik maqolalarda “proponent” va “opponent” kabi tomonlarning bo‘lishi kabi xulosa va tavsiyalardan “Oyina.uz” portali faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish jarayoniga tatbiq etilgan. (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi 2024-yil 21-iyun ISH-06/455 sonli ma‘lumotnomasi hamda “Oyina.uz” portalining 2024-yil 21-iyundagi 27-sonli dalolatnomasi). Natijada, yangi tendensiya sifatida kirib kelgan ovozli chat loyihasini tashkillashtirish va polemik kontentlar ta‘sirchanligini oshirishga erishilgan;

davriy nashrlarga auditoriya e‘tiborini qaratish, plyuralizm va tanqidiy tafakkurni o‘stirish borasida nashrlarda polemik maqolalarga o‘rin berish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan “Hurriyat” gazetasi tahririyati faoliyatida joriy etilgan. (O‘zbekiston jurnalistlar uyushmasining 2024-yil 1-apreldagi 02/18-22-sonli ma‘lumotnomasi hamda “Hurriyat” gazetasining 2024-yil 1-apreldagi VIII-06/455 sonli dalolatnomasi). Natijada, bir davriy nashrda boshlangan bahsni boshqa gazetalarda qo‘llab-quvvatlanishi, takomillashishida Jurnalistlar uyushmasi yo‘naltiruvchi pozitsiyada gavdalanishi bo‘yicha keltirilgan taklif doirasida chora-tadbirlar ishlab chiqishda foydalanilgan;

partiya nashrlarida chop etilayotgan polemik maqolalarning ilmiy-nazariy asoslari, saylov oldi jarayonlarida partiya faoliyatini samarali tatbiq etish, targ‘ibot usuli sifatida polemikaning amaliy ahamiyati tushuntirildi. Maqola janrining bir turi sifatida tili va uslubi borasida ishlab chiqilgan tavsiyalardan, muallif yondashuvi, shuningdek, polemik maqolaga sarlavha qo‘yishning zamonaviy talablari va ko‘tarilgan muammoni hal qilishdagi roli doirasidagi taklif va tavsiyalardan “XXI asr” gazetasi faoliyatida joriy etilgan. (O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining 2024-yil 4-aprel 01-27/189-sonli ma‘lumotnomasi hamda “XXI asr” gazetasi 2024-yil 4-apreldagi 26/01-sonli dalolatnomasi). Natijada, tanqidiy fikrlash, plyuralizm, targ‘ibot rivojida polemik maqolaning ahamiyati davriy nashrlar uchun ijobiy samara berishi borasidagi kasbiy bilimlar mustahkamlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, to‘qqiz paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan. Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e‘lon qilingani hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ommaviy kommunikatsiyalar tarixida polemikaning o‘rni”** nomli birinchi bobi uch fasldan tashkil topgan. *“Polemika tushunchasining matbuotda paydo bo‘lish zarurati”* deb nomlangan ilk faslida polemika tushunchasining tarixi, nazariy ilmiy yondashuvlar borasida so‘z boradi.

Haqiqat bahslarda tug‘iladi, degan tushunchani ongli faoliyatimizda ko‘p qo‘llaymiz. Necha asrlardan beri tildan-tilga o‘tib kelayotgan bu jumla uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgani, muayyan nazariy asosga egaligini anglatadi. Tadqiqotchi M. Ismoilovning ta‘kidlashicha, bahslashish tushunchasi hali yozuv paydo bo‘lmasdan oldin, og‘zaki muloqotda qadimgi Yunonistonda kurtak otib, notiqning iste‘dodi, mahorat ko‘rinishi sifatida san‘at darajasida ulug‘langan. Qadimgi Yunonistonda notiqalar o‘z nutqlarida ma‘nodorlik va uzviylikka, dalil va isbotlar bilan gapirishga alohida e‘tibor qaratgan⁹. Jamiyatda u yoki bu nizoli vaziyatlarga yechim topishda, notiqning nutqi va undagi polemikaning ahamiyati nihoyatda katta edi. Shunday ekan, polemika muloqotning eng qadimiy, an‘anaviy, aniq shakllaridan biri sanalib, ritorika va notiqlik san‘ati bilan bevosita bog‘liq holda jurnalistika vujudga kelmasdan turib, tahririyat jamoalari shakllanishidan ancha ilgari dunyoqarashimizga, turmush tarzimizga kirib kelgan. Polemikani o‘rganishda ritorik yondashuvni chetlab o‘tish imkonsiz, sababi S.Gindin ta‘kidlaganidek, *“...ritorikaning obykti ba‘zi bir narsalarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan har qanday nutq aloqasi bo‘lishi*

⁹ Ismoilov M., Toshmuhammedova L. Notiqlik san‘ati. O‘quv qo‘llanma. - T.: Noshir, 2019. - B.11.

mumkin”¹⁰. Bahs nazariyasi qadimgi Yunonistonda sud amaliyoti, axloq va ritorika ehtiyojlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Ritorikaning fan sifatida asoschisi Aristotelning ta’rificha, polemika – “har bir mavzu bo‘yicha ishontirishning mumkin bo‘lgan usullarini topish qobiliyati, nizo yuritishning umumiy tamoyillaridir”¹¹. Shu o‘rinda turli tadqiqotchi olimlar tomonidan polemika istilohiga berilgan ta’riflarga e’tibor qaratamiz. A. Shesterina polemika atamasiga quyidagicha ta’rif beradi: yunoncha “polemikos”dan olingan bo‘lib, “jangovar”, “dushman” ma’nolarini anglatadi, o‘z nuqtayi nazarining to‘g‘riligini va dushman pozitsiyasining nomuvofiqligini isbotlash uchun fikrlar, pozitsiyalarni ifoda etuvchi raqobat almashish jarayoni, deb keltiradi¹². Rus tilining izohli lug‘atida esa, polemika – “polemikos” so‘zidan olingan bo‘lib, “jangovar”, “dushman”, “hujum” degan ma’nolarga ega deyilgan. Shuningdek, turli manbalarda polemika, bu – har qanday muammoga, savollarga oydinlik kiritish muhokamasi paytidagi bahs¹³, intellektual duel shaklida bo‘lib o‘tadigan muloqot turi, unda ishtirokchilarning har biri raqib bayonotlarini tanqid qilish va rad etish bilan bir qatorda, o‘z pozitsiyasini asoslash va bahslashishidir¹⁴, deb keltirilgan.

Oksford lug‘atida, polemika – shaxs yoki predmet atrofida ko‘pchilik qat’iyan rozi bo‘lmaydigan, yomon deb hisoblaydigan yoki hayratga soladigan narsa haqida ommaviy muhokama va bahs qo‘zg‘atmoq yoki bahsga sababchi bo‘lmoq ma’nosida keltirilgan¹⁵. Rus mantiqshunosi L. Pavlova esa “Polemika bu – ishontirish ilmidir. U fikrni ishonchli va shubha tug‘dirmaydigan dalillar, ayniqsa ilmiy dalillar bilan mustahkamlashga o‘rgatadi”¹⁶, deb ta’rif bersa, boshqa tadqiqotchi A. Ivin olimaning fikrlarini to‘ldirib, bunday hodisalarga qiziqish “jamiyatda majburlash, zo‘ravonlik, tahdid va boshqalar orqali emas, balki nutq orqali ishontirish zarurati bilan paydo bo‘lishini” ta’kidlaydi¹⁷. S. Turabova bahsning (debat, diskussiya, polemika, disput) to‘rt turini ilmiy bahs sifatida tatbiq etadi va polemikani quyidagicha ta’riflaydi: polemika bu – o‘zida taraflar, g‘oyalar va nutqlar o‘rtasidagi konfrontatsiya va qarama-qarshilikni mujassamlashtirgan bahsdir. U fikrni ilmiy dalillar bilan asoslashga o‘rgatadi¹⁸. Rus ensiklopedik lug‘atida polemika bu – adabiy, badiiy, ilmiy, siyosiy masala yoki hodisa, ijtimoiy

¹⁰ Шестерина А.М. Полеми́ческий текст в современной прессе. Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Воронеж, 2004. – 44 с. – URL: <https://www.dissercat.com/content/polemicheskii-tekst-v-sovremennoipresse?893> (murojaat sanasi: 05.05.2023).

¹¹ Публичные дебаты и полемика, диалогическая риторика. 2023. – URL: <https://studfile.net/preview/7775792/page:15/> (murojaat sanasi: 24.12.2023).

¹² Шестерина А.М. Полеми́ческий текст в современной прессе. Автореф. дис. ... док. филол. наук. – Воронеж, 2004. – 44 с. – URL: <https://www.dissercat.com/content/polemicheskii-tekst-v-sovremennoipree?02893> (murojaat sanasi: 05.05.2023).

¹³ Ожегов С., Шведова Н. Толковый словарь русского языка. – URL: <http://ozhegov.info/slovar/?qind> (murojaat sanasi: 24.04.2023).

¹⁴ Родос В.Б. Теория и практика полемики. – Томск: Томский государственный университет им. В.В. Куйбышева, 1989. С.10.

¹⁵ Oxford Learner's Dictionaries. – URL: <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/?ysclid=ludli4012r915613306> (murojaat sanasi: 24.04.2023).

¹⁶ Павлова Л. Спор, дискуссия, полемика. – М.: Просвещение, 1991. С. 6.

¹⁷ Абрамов С. Война и журнал: о страницах «Нового мира» сорокалетней давности. – М.: Новый мир, 1985. С. 225.

¹⁸ Turobova S. Ilmiy bahs (debat, diskussiya, polemika, disput) ning mantiqiy-epistemik tahlili. Monografiya. Surxon-Nashr. –Termiz, 2020.

masala yuzasidan munozara olib borish, biror bir umumiy manfaat bo'yicha matbuotda qo'zg'atiladigan janjallar, har kim o'z pozitsiyasining to'g'riligini isbotlashga urinadigan munozara xilidir¹⁹, deyilgan. Bizningcha esa, polemika bu – muayyan ijtimoiy masala yuzasidan jamiyatda munosabat uyg'otish va plyuralizmga xizmat qiladigan, qarama-qarshi fikrlar va tortishuvlarga asoslangan bahs turidir. Tadqiqot davomida o'rganilgan manbalarni aynan shu ta'rifdan kelib chiqqan holda tahlilga tortdik.

Bobning *“Jadid matbuotida polemikaning ilk ko'rinishlari”* nomli ikkinchi faslida polemik maqolalarning o'ziga xos xususiyatlari, xorij va milliy jurnalistika ilmida namoyon bo'lishi, jadid matbuotidagi o'rni, davriy nashrlardagi funksiyasi masalalari tadqiq etilgan. Globallashuv jarayonida onlayn nashrlar, ijtimoiy tarmoqlarda turli forumlardagi tortishuvlar, video, maqola, xabar sharhlaridagi munozaralar, televizion tok-shoular, bosma va elektron gazetalar kontentini tahlil qilganimizda turli bahs-munozarali vaziyatlarga duch kelamiz. Ayniqsa, so'nggi yillarda bunday hodisalar avvalgilarga qaraganda birmuncha kuchayganiga guvoh bo'ldik. Buni bevosita axborot texnologiyalarining rivojlanishi, plyuralizm va so'z erkinligi bilan bog'lash mumkin. Munozaralarning salbiy yoki ijobiy tarafga hal bo'lishida, tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshilik, fikrlar to'qnashuvi, tortishuvlar davomida bir to'xtamga kelish jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, jurnalistika janrlari bo'yicha tadqiqot olib borgan nazariyotchilar muayyan mavzular atrofidagi tortishuvlar, bahs-munozara mazmunidagi gazeta materiallarini munozarali (polemik) maqola turiga ajratadilar²⁰. Jumladan, rus olimi A.Tertichniy bunday turdagi maqolalarni polemik maqolalar, deb ataydi va u ko'pincha mustaqil nashrlarda uchrashini aytadi²¹.

Polemik maqolalar odatda jamiyatning biror bir sohasida, muayyan muammo atrofida bahs-munozara, tortishuvlar, ko'p fikrlilik (plyuralizm) paydo bo'lganda matbuot yuzini ko'radi. Polemik maqola muallifi raqibning pozitsiyasini rad etishga va o'zining argumentlarini isbotlashga intiladi. Shuning uchun polemist (bahsga kirishgan shaxs) dalillash va inkor qilish san'atiga ham ega bo'lishi kerak²². Jamiyatda paydo bo'lgan illatlar va muhokamali mavzularda, turli fikrlar to'qnashuvida, qarama-qarshiliklarda bahs tug'iladi. Unda har kim o'z fikrining to'g'riligini isbotlashga uringanidek, davriy nashrlarda ham chop etilgan munozarali maqolalarda mualliflar o'z pozitsiyasini himoya qilgan holda bahsga kirishadi.

O'zbek matbuotida munozarali maqolalarning paydo bo'lishi gazetalarning vujudga kelish tarixiga borib taqaladi. Filologiya fanlari nomzodi B. Do'stqorayevning fikricha, o'zbek milliy matbuotida polemik maqolalar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida “bahs”, “munozara”, “tortishuv”, “jarayon” ruknlari ostida davriy nashrlarda paydo bo'la boshlagan²³. O'zbek matbuoti tarixida

¹⁹ Энциклопедический словарь / Под редакцией Ивина А.А. – М.: Гардарики, 2004.

²⁰ Nazira Qurbon. Tahliliy jurnalistika: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Bayoz, 2019. -B.110.

²¹ Тертычный А. А. Жанры периодической печати: учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 2000. С. 112.

²² O'sha manba.

²³ Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. -Toshkent. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. -B.341.

bahs-munozarali chiqishlar bevosita jadid matbuoti bilan bog'liq. Jadid namoyandalarining har bir harakatida munozara, tortishuv, chorlov kabi g'oyalar aks etgan.

Xorij matbuotida esa XVIII asrda "New England kurant" gazetasi ijtimoiy va siyosiy mavzudagi bahsni boshlab bergani bilan tarixda qolgan. Uning dastlabki bosqichi 1721-yil Jeyms Franklinning siyosiy nashri hisoblangan "New England kurant" rivoji Bostonda o'tkir yuqumli kasallik epidemiyasi avj olgan, vahima kuchaygan bir paytga to'g'ri keladi²⁴.

Bobning uchinchi fasli "*So'z va matbuot erkinligini ta'minlashda polemikaning o'rni*" deb nomlangan. Jamiyatdagi hurfikrlilikni, odamlarning fikr va so'z erkinligi borasidagi qarashlarini, inson huquqining ta'minlanganini ko'rsatuvchi oyina bu shak-shubhasiz matbuotdir. Matbuot bor joyda so'z erkinligi haqidagi bahs-munozaralar bo'ladi va bu tabiiy jarayondir. Sababi, demokratiya eng avvalo, xolislik, muvozanat, bahs, munosabat, murosadir. Fikrga murosa qilish, fikrga toqat qilishdir. Jamoatchilik fikrining ustuvorligiga erishishdir²⁵. Turli ijtimoiy masala yuzasidan jamiyatda plyuralizmni shakllantirishning yagona yo'li matbuot erkinligiga erishish bilan kafolatlanadi. Shuning uchun u barcha davrlarda ham oliy qadriyat sanalgan. Fikrni erkin ifoda etish, haqiqat, adolatni qaror topishiga erishish uchun insoniyat qonli kurashlarni boshdan kechirdi, juda ko'p qurbonlar berdi.

Suqrotning har bir fikri uchun do'pposlanishi, zahar ichishiga ham, Protagor va uning shogirdi Evatl o'rtasidagi bahsga ham²⁶, "fikrlayapmanmi, demak mavjudman!" degan qarashni ilgari surgan Rene Dekartning qiynoqqa tortilishiga ham, Mansur Hallojning dorga osilishi-yu, Nasimiyning tiriklayin terisining shilib olinishiga ham erkin fikrga ehtiyojning ustuvorligi sabab bo'lgan. XX asr boshlarida o'zbek ma'rifatparvarlarining qatag'onga uchrashiga eng katta sabablardan biri – ularning hurfikrlilikka bo'lgan intilishi, davriy matbuot orqali jamiyatda so'z va fikr erkinligini ta'minlashga bo'lgan targ'ibotlari edi. Siyosiy arbob, yozuvchi Tomas Jefferson so'z erkinligini e'zozlagan va shunday bayonot bergan: "Agar menga hal qil, gazetalarsiz hukumat kerakmi yoki hukumatsiz gazetalar deyishsa, men hech ikkilanmasdan ikkinchisini tanlagan bo'lardim"²⁷. Bu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, demokratik jamiyatda davlat boshqaruvidan jamoatchilik boshqaruvi muhimroq. 1990-yillarda matbuotda so'z erkinligining yorqin namunasi sifatida shu yilning 1-oktabrida o'z faoliyatini boshlagan "Muloqot" jurnali misolida ko'rishimiz mumkin. Bu davr barcha gazeta-jurnallarda "butun dunyo proletarlari, birlashingiz!" degan markscha xitob hukmron edi. "Muloqot" jurnali bu shiordan yuz o'g'irgan birinchi jurnal sifatida tarixda qoldi. Uning o'rniga A.Navoiyning "odami ersang demagil odami, onikim yo'q xalq

²⁴ Nurmatov A., Do'stqorayev B., Mo'minov F., Saidov H., Toshpo'latova N., Maxsumova S. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. –T.: O'zbekiston, 2019, -B. 526.

²⁵ Do'stmuhammad X. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. -T.: O'zbekiston, 2005. -B. 39-40.

²⁶ Haqiqat manzaralari. 100 mumtoz faylasuf. Taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar. -T.: Yangi asr avlodi, 2013. -B.55.

²⁷ Nurmatov A., Do'stqorayev B., Mo'minov F., Saidov H., Toshpo'latova N., Maxsumova S. Jurnalistika nazariyasi, tarixi va taraqqiyoti. – T.: O'zbekiston, 2019, -B.120.

g‘amidin g‘ami” degan hikmatli so‘zini shior qilib oldi²⁸. Bahs-munozaralar qarama-qarshi tomonlar fikrini isbotlashning maxsus shakli bo‘lib, insoniyat tarixining eng qadimiy davrlaridan shakllangan. Biror bir masalaga yechim izlashda maqbul usul sifatida qo‘llanilgan polemika notiqlik va bahs san‘ati rivojlanishi natijasida dastlab og‘zaki, keyinchalik yozma manbalarda o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Milliy matbuot istiqboli - polemikaning yetakchi mavzusi sifatida**” deb nomlanib, u uch fasldan iborat. “*Zamonaviy polemikada milliy matbuot xususidagi maqolalarning janrlar kesimida namoyon bo‘lishi*” deb atalgan birinchi faslda davriy nashrlarda polemik maqolalarning janrlar kesimida namoyon bo‘lishi tahlil qilingan. Har bir maqolaning tarkibini matn tashkil etgani kabi, polemik maqolaning matni ham polemik matn tushunchasi bilan qo‘llaniladi. Rus tadqiqotchisi A.M.Shesterina polemik janrlar tizimini ikki guruhga ajratadi: dialogik guruh (intervyu, suhbat) va monologik guruh (polemik maqola, polemik yozishma, polemik sharh, polemik xat)²⁹.

Intervyu janri savol-javob turiga asoslangan bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga molik, muammoli voqea-hodisalar haqida dastlabki axborot olishda qo‘llaniladi. Ko‘proq sariq matbuot sahifalarida uchraydigan bu janrda muallif pozitsiyasi asosan suhbatdoshning javobiga qo‘shimcha qilingan izohlarda ko‘rinadi yoki umuman bo‘lmaydi. Suhbatdosh muallif bilan bimalol bahsga kirishishi mumkinligini inobatga olsak, har ikki tomon ko‘tarayotgan muammoli masalada respondent va muallif mavzu doirasida chuqur bilim va tajribaga ega bo‘lishi talab qilinadi. Har bir ishtirokchi o‘z pozitsiyasida gavdalanishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin.

Suhbat – intervyu qarama-qarshilikdan ko‘tarilayotgan mavzular ko‘lami bo‘yicha biroz farqlanadi. O‘zaro tortishuvda tomonlar o‘z pozitsiyasida qolishga harakat qiladi.

Polemik yozishmalar – ko‘pincha kichik muammoli vaziyatlarda tor doirada qo‘llaniladi. Matbuotda ko‘p hollarda auditoriya bilan muallifning mavzu doirasida bahslashgan yozishmalarini keltirish mumkin.

Polemik sharh – odatiy sharhlardan farqli o‘laroq, axborot hodisasini tahlil qilishdan oldin, raqibning nutqi tahlil qilinadi.

Polemik xat – biroz erkin janr hisoblanib, unda biron bir hodisa yoki shaxsni ayblash pafosi mavjud. U har doim murojaat bilan boshlanadi, faktlar birma bir eslatib o‘tiladi. Odatda, xulosa muallifning pozitsiyasi, mavzu atrofidagi fikrlari, taklifi bilan tugaydi.

Polemik maqola - eng keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, maqola an‘anaviy ravishda muallif himoya qiladigan asosiy fikrni shakllantirishdan boshlanadi. Ba’zida bu fikr o‘quvchiga allaqachon ma’lum holatlarga ishora yoki havola shaklida ifodalanadi. Bunday maqolalar odatda jamiyatda muhim muammolar

²⁸ Abduazizova N. Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi (yangilanish va ravnaq topish jarayonlari). T.: Akademiya, 2007, - B.35.

²⁹ Шестерина А.М. Полемический текст в современной прессе. Автореф. дис... док. филол. наук. – Воронеж, 2004. С.44.–URL: <https://www.dissercat.com/content/polemicheskii-tekst-v-sovremennoi-presse?ysclid=lielyfda5i151302893> (murojaat sanasi: 15.05.2023).

bo'yicha tortishuvlar yuzaga kelganda chop etiladi. Polemik maqolada jarayonning o'zi yoki unga nisbatan shakllangan munosabatlarning salbiy bahosi mavjudligi seziladi³⁰.

T.V.Sinenkoning fikricha, jamiyatda ma'lum rezonans keltirib chiqaradigan har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega hodisa polemik maqolalarda o'z aksini topadi³¹. Bu ta'rifni biroz to'ldirgan holda, bizningcha, polemik maqola ijtimoiy ahamiyat kasb etgan turli mavzularda namoyon bo'ladi, ko'tarilgan u yoki bu masala yuzasidan hukm chiqarishda tayanch vazifasini o'taydi.

Bobning ikkinchi faslida **“Matbuotning zamonaviy media muhitiga moslashuv muammolari”** deb nomlanadi. Hayotimizga kirib kelgan zamonaviy texnologiyalar nafaqat jurnalistikaning imkoniyatini kengaytirdi, balki yangi tendensiyalarni ham paydo qildi. Jahon tajribasida bu jarayon ancha oldin boshlangan edi. S. M. Gureyevichning “Gazeta vchera, segodnya, zavtra” nomli qo'llanmasida, “Kanadalik televideniye tadqiqotchisi Marshall Maklyuen gazeta halokatga uchraganini va omon qololmasligini aytgan. Biroq, bu bashoratlar amalga oshmadi. Gazeta o'lmadi, u yangi tendensiyalarga moslasha oldi”³², deb yozadi. O'zbek matbuoti xususida ham Maklyuendek fikrlaydiganlar yo'q emas. Jumladan, Komil Allamjonovning fikricha, “Covid-19 pandemiyasi bosma nashrlarning tobora yo'qolib borishini tezlashtirdi. ...ularning kelajagini ko'rmayapman. Aslida, bu inqirozlar boshlanmaganida ham, gazetalar – allaqachon o'tmish mahsuloti. Gazetaning umri qisqa. Gazeta allaqachon xarid qilish zarur mahsulotlar ro'yxatida emas”³³.

Buyuk Britaniyalik taniqli sotsiolog, ommaviy kommunikatsiya nazariyotchisi Denis Makkueyl aytganidek, “OAV uchta muhim kuch kesishgan nuqtada – iqtisod, siyosat va texnologiyalarning qoq markazida joylashgan”. Bregte van der Xaak, Maykl Parks, Manuel Kastels singari tadqiqotchi olimlar “Nima uchun an'anaviy jurnalistika chuqur inqirozga yuz tutdi?” degan savolga javob topishga harakat qilib, bu “inqiroz”ni an'anaviy OAVning o'ziga xos biznes modeli bilan bog'laydilar. Chunki hozir har bir odam xohlagan manbadan axborot olish imkoniga ega. Buning ustiga axborotni bepul taqdim etadigan kanallar ko'paygan. Oqibatda ommaning axborot uchun pul to'lash majburiyati kundankunga pasayib boryapti. Shuning uchun auditoriya axborot olish maqsadida gazetalarga kam murojaat qilmoqda³⁴. Olimning bunday qarashlari biroz munozarali, bizningcha. Sababi, gazetaga obuna bo'lish orqali axborotga faqat bir marotaba pul to'lanadi, keyin u yil davomida yetkazib beriladi. Internetdan ma'lumot olish uchun esa, unga qayta-qayta murojaat etiladi, natijada har soniya

³⁰ Аникевич Ю.С. Полемиические жанры на страницах республиканской и областной прессы. – URL: <https://ebooks.grsu.by/philologos/anikevich-yu-s-polemicheskie-zhanry-na-stranitsakh-respublikanskoj-i-oblastnoj-pressy.htm> (murojaat sanasi: 01.03.2024).

³¹ Синенко Т.В. Жанровая специфика сетевой полемики // Вестник ВГУ, серия «Филология. Журналистика», 2008, № 1. С. 215.

³² Гуревич С.М. Газета вчера, сегодня, завтра. – М.: Аспект-пресс, 2004. С. 27.

³³ Komil Allamjonov - pandemiyaning OAVga ta'siri va matbuot erkinligi reytingi haqida. – URL: <https://kun.uz/08080560?ysclid=lq671hyrro951641453> (murojaat sanasi: 15.12.2022).

³⁴ Nurmatov A. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bosma nashrlar va media taraqqiyoti. Medialingvistika: nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2021-yil 17-noyabr.

uchun pul sarflashga majbur bo‘ladi. S. Gureyevichning nazdida, gazeta har qanday ijtimoiy guruh va har qanday ijtimoiy tuzilma oldida jamiyatning ovozi sifatida auditoriya bilan aloqa o‘rnatish imkoniyatini ochib berishi kerak. Buning uchun bunday guruhning qarashlari, pozitsiyalari, dasturlari to‘g‘risida xabar beradigan gazeta yaratish kifoya³⁵.

Bobning uchinchi fasli **“Bosma nashrlarga bo‘lgan ehtiyojning pasayishi va ular atrofidagi bahs-munozaralar”** deb yuritiladi. O‘rganilgan tahlillar jarayonida bosma nashrlarga bo‘lgan ehtiyojning pasayishi quyidagi omillarga bog‘liqligi aniqlandi:

Birinchidan, turli tashkilotlarda gazeta va jurnallarga obuna majburiy bo‘lgan. Ixtiyoriy obuna tushunchasi hatto shakllanmagan.

Ikkinchidan, majburiy obuna qilingan gazeta va jurnallarning o‘z vaqtida obunachilarga yetib bormasligi muammosi. Bu vazifa “Matbuot tarqatuvchi” AJ yoki MCHJlar zimmasiga yuklatilgan. Obunachilar tomonidan to‘plangan obuna puli (bu juda katta mablag‘ni tashkil etadi) evaziga na tahririyat, na jurnalistning iqtisodiy ahvoli yaxshilandi, na o‘quvchi gazeta oldi. Bu holat o‘quvchini gazetadan bezdirdi.

Uchinchidan, gazeta o‘z o‘quvchisi bilan aloqani yaxshi yo‘lga qo‘ymaganligi masalasi. Hech bo‘lmasa joylarda uchrashuvlar, turli tanlovlar, yoshlarni jalb qilish borasida loyihalar ishlab chiqilmadi. Oqibatda, yoshlar gazeta o‘qish ko‘nikmasi u yoqda tursin, hatto gazetaning nomini bilmaydigan darajaga keldi.

To‘rtinchidan, gazetalarda targ‘ibot yetarli darajada tashkil etilmaganligi. Buning uchun tahririyatlar obunachilarni rag‘batlantirish, yil davomida obuna bo‘lganlarga keyingi yilda aksiya, chegirmalar berish, nashrda buni yoritib borish kabi o‘z-o‘zini reklama qilish usullaridan foydalanmadi. Xorij tajribasini olsak, Turkiyada yaxshi obuna bo‘lgan tashkilot yoki shaxslarga kitoblar, xususan, ensiklopediyalar, vaucherlar, kuponlar taqdim etilishi odat tusiga kirgan.

Beshinchidan, gazetada shablon maqolalarning haddan ziyod ko‘payganligi, aksariyati “mamlakatda yaratilgan imkoniyatlar”dan boshlanib, keraksiz tadbirlar bilan davom etgan. Internet rivojlangan davrda gazetada jurnalistlar xonadan chiqmagan holda sahifa so‘ngida “Internet ma’lumotlari asosida falonchi tayyorladi” qabilida oson maqola tayyorlash usuliga o‘tib oldi. Jamiyatdan uzildi. Jurnalistlarda xonadan chiqmay maqola tayyorlash ko‘nikmasi shakllandi.

